

## VILOYAT HOKIMI XITOYNING QURILISH, ENERGETIKA SOHASI BO'YICHA FAOLIYAT OLIB BORUVCHI KOMPANIYA VAKILLARINI QABUL QILDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Xitoyning qurilish, energetika sohasi bo'yicha faoliyat olib boruvchi Xinjiang Bai Yi Da Construction Investment Co.,Ltd kompaniyasining vakillarini qabul qildi.

Mazkur xitoylik investorlar bilan avvalgi uchrashuvda qurilish, energetika, issiqlik, suv ta'minoti va isitish tizimlari bo'yicha Farg'onada amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan investitsion loyihalar xususida taqdimotlar o'tkazilgandi. Bugungi muloqotda energetika sohasidagi yangi loyihalarni boshlash masalasi muhokama etildi.

Xayrullo Bozorov viloyatimizda energetika sohasi ham jadal rivojlanib borayotganini alohida qayd etib, xorijlik investorlarning bunga qiziqishi ortganligini ta'kidladi. Xitoylik investorlarning misni qayta ishlash va mis kabellarini ishlab chiqarish loyihasini qo'llab-quvvatlashini, buning uchun zarur infratuzilmaga ega bo'lgan sanoat zonalari borligini bildirdi.

Xitoylik ishbilarmonlar uchrashuvda viloyatimizning investitsion salohiyati bilan tanishib, bir qator yo'naliishlarda hamkorlikka tayyor ekanligini ta'kidlashdi. Dastlabki bosqichda 40 mln. dollarlik energetika sohasida yirik loyiha - mis kabellarini ishlab chiqarishni tashkil etishni ma'lum qildilar. Loyiha natijasida yiliga 100 ming tonna mis qayta ishanadi, ichki ehtiyoj qoplanadi, mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yiladi. 500 ta yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Viloyat hokimi mazkur loyihani amalga oshirish uchun investorlarga zarur ko'mak berilishini aytib, dastlabki jarayonni boshlash bo'yicha o'z takliflarini bildirdi.

Loyihalar bo'yicha hamkorlikda ish tashkil qilishga kelishib olindi.



### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-05 21:33:22